



**KOMPETENSIYA-FAOLIYATIMIZNI MUSTAQIL VA IJODIY AMALGA
OSHIRISHDA PSIXOLOGIK TAYYORGARLIK**

GulDU Amaliy san'at va dizayn kafedrası
mudiri. p.f.f.d v.b.dotsent.
Berikbayev Alisher Alikulovich
berikbaevalisher@gmail.com
<https://orcid.org/0009-0008-6274-4714>

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15228731>

Annatotsiya. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning shakllanib kamol topishida izchillik, ularning mustaqil mushohoda qila olishlari va maktab davrida ularing ruhiyatidagi psixologik va pedagogik ta'sirlar davomida tarkib topadigan kasbiy sifat elementlari rivojlanishida tayyorgarligi ularning ruhiyatida kechadigan omillarni tarkib toptirish qanday qo'llash kerakligi yoritib o'tilgan.

Kalit so'zlar: psixologiya, ong, oila, ta'lim, fan, kompetensiya, kompetentlik, izchillik, uzviylik, kreativlik.

Mamlakatimizdagi ijtimoiy maktabgacha tashkilotlar ta'lim-tarbiyaviy ishning keng dasturini amalga oshirib boalalarni maktabga tayyorlashdek zarur ishni ta'minlaydi. Ya'ni, bu o'rinda maktabgacha ta'lim tashkiloti va maktab ishidagi izchillik katta ahamiyat kasb etishini ta'kidlash lozim bo'ladi. Izchillikni amalga oshirishning mavjud imkoniyatlari maktabgacha ta'limi tizimi, uning tarkibiy tuzilishi va amalda bo'lishining asosi hisoblanadi.

Bolani maktabga aqliy tayyorlashning maqsad va vazifalari tarbiyaning bolalar yosh xususiyatlari hisobga olingan umumiy maqsad va vazifalaridan kelib chiqib belgilanadi. Bu maktabgacha ta'lim tashkiloti va maktab o'rtasida izchillikni ta'minlashning haqiqiy asosini tashkil qiladi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti va maktabdagi ta'lim va aqliy tarbiya vazifa, shakl hamda metodlarining turli yosh bosqichlarida bola shaxsini har tomonlama shakllantirishni amalga oshirish maqsadlarida o'zaro aloqasini qaror toptirish izchillik ifodasi hisoblanadi. Izchillik rivojlanishning turli bosqich yoki bo'g'inlari o'rtasidagi o'ziga xos aloqa sifatida ta'riflanib, uning mohiyati bir butunning u yoki bu elementlarini yoki bir butunni sistema sifatida o'zgartirilganda uni tashkil etishning ayrim tomonlarini saqlashdan iboratdir: yangilikda oldingi rivojlanish bosqichining elementlari doimo saqlanadi. Klassik falsafa namoyondalari izchillik rivojlanish qonuniyat sifatida rivojlanishning uzviylikni to'liq inkor etish yo'li bilan emas, balki, uning eng muhim elementlarini jamlash va ularni yanada rivojlantirish uchun yangi bosqichga ko'chirish orqali ta'minlaydi, deb ta'lim beradi. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, Maktabgacha ta'lim tashkiloti va maktab izchilligini, birinchidan, bolalar bog'chasidagi ta'lim - tarbiyaviy ishning bolalarga ular umumiy rivojlanishining zarur darajasiga erishishlari uchun maktabda qo'yiladigan talablarga yo'llanganligi, ikkinchidan, o'qituvchining katta maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar erishgan rivojlanish darajasi, bolalarni aqliy bilim, malaka va ko'nikmalariga tayanish hamda bundan ta'lim-tarbiya jarayonida faol foydalanishga yo'llanganlikni nazarda tutuvchi mazmunli, ikki tomonlama aloqa, deb qarash mumkin. Maktab maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning muhim "istiqbolli" rivojlantirishni ta'minlaydi va shu bilan birga bola shaxsining boshlang'ich ta'lim maqsad va vazifalariga muvofiq keluvchi sifat jihatidan yangi xususiyat hamda xislatlarni shakllantirishga yordam beradi.

Izchillik bolalar bog'chasi va maktabdagi psixologik-pedagogik jarayonda ta'lim va tarbiyaning shaxsni uzluksiz yuksalib boruvchi shakllanishini ta'minlovchi yaxlit, dinamik va istiqbolli tizimini amalga oshirish uchun sharoit yaratadi. Bolalar bog'chasi va maktab o'rtasidagi izchillikning qaror topishi katta maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar va quyi sinflar o'quvchilariga aqliy ta'lim - tarbiya berish sharoitlarini yaqinlashtirish imkonini beradi. Shunga ko'ra maktab ta'limining yangi sharoitlariga o'tish bolalar uchun sezilarsiz bo'lgan



psixologik qiyinchiliklar bilan amalga oshiriladi. Bunda bolalarning yangi sharoitlarga tabiiy kirib borishlari ta'minlanadi, bu o'quvchilarga maktabga birinchi kelgan kunlaridan boshlab ta'lim va tarbiya berish samaradorligini oshirishda yordam beradi. Bolalar bog'chasi va maktab o'rtasidagi uzviylik murakkab tarkibiy tuzilishga ega. Unda yetakchi yo'nalishlar aqliy ta'lim va tarbiyadagi izchillik hamda ularning tarkibiy qismlari: ta'lim-tarbiyaviy ish mazmuni, shakl va metodlaridagi izchillik, shuningdek, bolani tarbiyalashdagi psixologik talablar va sharoitlar izchilligini farqlash mumkin. Bolalar bog'chasi va maktabdagi butun psixologik-pedagogik jarayonning bola shaxsini har tomonlama rivojlantirishga yo'llanganligi ular o'rtasida ta'lim- tarbiya izchilligiga erishishning asosiy sharti hisoblanadi. Maktabgacha tarbiya yoshida bolalar egallagan xulq-atvor va katta yoshlilar va hamda tengqurlari bilan o'zaro munosabatlar shakllari, ma'naviy tasavvurlar va hissiyotlar boshlang'ich sinflarda amalga oshiriladigan axloqiy tarbiyaning, o'quvchilarda rivojlantiriladigan ma'naviy hatti-harakat, ong, hissiyot va munosabatlarning zamini hisoblanadi.

Maktab -maktabgacha yillarda shakllantiriladigan jamoatchilik xususiyatlarini sifat jihatda yanada rivojlantirish uchun zarur sharoitlarni yaratdi hamda o'quvchi shaxsi jamoatchilik yo'llanganligini qaror toptirishni ta'minlaydi. O'quvchilarni maktabga borishlarining dastlabki kunlaridan boshlab, bolalar bog'chasidan boshlangan o'quvchilar ma'naviy tasavvurlari va xulq - atvorlari birligini shakllantirish, ularda o'z faoliyat va hatti harakatlari uchun shaxsiy mas'uliyatni oshirish bo'yicha ish davom ettiriladi. Maktabda o'quvchilarda yuksak insoniy hissiyotlar: vatanparvarlik, vatan oldida o'z burchini his etish kabi hissiyotlar tarkib toptiriladi. Bu murakkab ma'naviy hissiyotlar asosini maktabgacha yillarda shakllantirilgan, o'tonaga, oilasiga muhabbat, katta yoshlilarga hurmat, tabiatni sevish va shu hissiyot kabilar tashkil qiladi.

Maktabda bolalarning nafosat tarbiyasiga doir ish davom ettiriladi. O'quvchilarda estetik tasavvurlar, voqeilikni estetik ko'ra bilish chuqurlashtiriladi. Musiqa va ashula darslarida bolalar musiqa janrlari bilan tanishadilar, ashula, raqs, marshni farqlashni o'rganadilar. Tasviriy san'at darslarida bolalar grafika, rassomlik, manzaralari amaliy san'at asarlari o'rtasidagi farqlarni, natyurmort, manzara, portretning o'ziga xos belgilarini o'zlashtiradilar. O'qish darslarida adabiyot janrlari bilan amaliy tanishiladi. O'quvchilarning badiiy faoliyatlarining har xil turlardagi amaliy ko'nikmalari ham takomillashadi, ijodiy aqliy qobiliyatlarini rivojlanadi. Albatta bolalardagi ijobiy qobiliyatlar shakllanib kelajakda kasbiy rivojlanishida muhim o'rin egallaydi. Bu esa maktab ta'limida yanada rivojlanib keyingi bosqichlarda kompetensiyaga aylanib munosib kadr bo'lib yetishadi. Qobiliyat bu- shaxs tomonidan ma'lum bir faoliyatni muvaffaqiyatli o'zlashtiradi va uni amalga oshirishi bilan bog'liq bo'lgan xususiyat sifatida tushuniladi. Bu yerda tarbiyachi-pedagogik qobiliyatning quyidagi guruhlariga farqlanadi:[5]

- ob'ektga (o'quvchiga) nisbatan sezgirlik;
- kommunikativlik–insonlarga yuz tutish, xayrihohlik, hushmuomalalik;
- perseptiv qobiliyatlar – kasbiy yetuklik, empatiya, pedagogik tuyg'u;
- shaxs dinamikasi–irodaga ta'sir eta olish, mantiqiy ishontira olish qobiliyati;
- xissiy barqarorlik;
- kreativlik;

Shunday ekan ushbu qobiliyatlarning turlari bo'yicha shaxsda kompetentlik va kompetensiya tushunchalari yuzaga keladi. Kompetensiya-faoliyatimizni mustaqil va ijodiy amalga oshirishga psixologik tayyorgarlikni bildiradi. Shu o'rinda qanday pedagogni kompetentli pedagog deb atashimiz mumkin? Bizning fikrimizcha, ya'ni bo'lajak o'qituvchini o'zining barcha ilmiy va ijodiy qobiliyatlarini, o'z sohasini, o'zi dars berayotgan fanni mukammal biladigan, psixologik va pedagogik bilimlarga ega bo'lgan, kreativ fikrlaydigan, o'z faoliyatida innovatsion pedagogik texnologiyalarni, ijodkorona qo'llay oladigan pedagogni kompetentli pedagog deb atashimiz mumkin. Kompetensiya va kompetentlik tushunchalariga izoh beradigan bo'lsak, bu ikkala tushuncha bir-biriga juda yaqin kelishini, lekin ular o'rtasida ma'lum bir farq borligini ko'rishimiz mumkin. Umuman olganda, kompetensiya deganda ma'lum bir soha bo'yicha



samarali faoliyatni amalga oshira oladigan mutaxassisning ta'limiy tayyorgarligiga qo'yiladigan ijtimoiy talab tushuniladi.[6]

Psixologiyaning asosiy vazifalari—psixika qonuniyatlarini, inson ruhiy holatlari shakllanishini filogenetik va ontogenetik taraqqiyot birligida ochishdan iboratdir. Bularni yechimini topishda Psixologiya bir tomondan, biologiya fani sohalari bilan jumladan, fiziologiya bilan, boshqa tomondan esa, sotsiologiya, pedagogika, madaniyat tarixi, mantik hamda ijtimoiy fanlar bilan jips aloqaga kirishadi. Psixologiya eng avvalo, psixikaning insonga xos shakli bo'lmish ong va o'zini o'zi anglashni tadqiq etadi.

Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisini individual kasbiy rivojlantirish, uning ma'naviy, ijodiy va kreativlik salohiyatini maksimal darajada ro'yobga chiqarish oliy ta'lim muassasalarida pedagog kadrlar tayyorlash tizimini tegishli tarzda modernizatsiya qilish zarurligini belgilab berdi. Uzluksiz ta'lim tizimini modernizatsiyalash va mazmunan takomillashtirish orqali bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarini kasbiy va kreativ kompetentligini rivojlantirish muammosi bugungi kunda ham zamonaviy pedagogikaning asosini tashkil etmoqda.[2]

Psixologlar odatda organizmni ongning asosi deb hisoblashadi, shuning uchun ham hayotiy muhim soha hisoblanadi. Psixiyatristlar va nevroopsikologlar ong va tananing interfeysida ishlaydi. Biologiya psixologiya, shuningdek fiziologik psixologiya deb nomlanuvchi yoki neuropsixologiyada xulq-atvor va aqliy jarayonlarning biologik substanslarini o'rganiladi. Ushbu sohadagi asosiy tadqiqot mavzularni insonni boshqa hayvonlarga nisbatan o'rganadigan qiyosiy psixologiya, shuningdek, hissiyotlarning fizik mexanizmini, shuningdek, neyron va ruhiy ishlov berishni o'z ichiga oladi. Asrlar mobaynida biologik psixologiyada asosiy masala miyadagi funktsional funktsiyalarni qanday joylashtirish mumkinligi va qanday qilib joylashtirilishi edi. Zamonaviy nevropsixologiyani 1870-yillarda Frantsiyada Pol Broca chap frontal guruxga nutq ishlab chiqarishni kashf etgan va bu bilan miya funktsiyasining yarim sharni lateralizatsiyasini namoyish etgan. Ko'p o'tmay, Karl Vernicke nutqni tushunish uchun zarur bo'lgan sohani aniqladi.[1]

O'zbekistonda psixologiya 1928 yildan e'tiboran hozirgi Milliy universitetda fan sifatida o'qitila boshlandi. 1929 yil Xalq maorifi komissarligi qoshida psixologiya laboratoriyasi ochildi. Keyinchalik pedagogika institutlarida psixologiyaning bir necha sohalari bo'yicha talabalarga bilim berila boshlandi. 20-asrning 2-yarmida M. Vohidov, M. Davletshin singari mahalliy kadrlar yetishib chikdi. Hozirgi davrda psixologiya fanlari doktorlari V. Tokareva, E. G'oziyev, B. Qodirov, G'. Shoumarov, R. Gaynutdinov, V. Karimova, Sh. Barotov, A. Jabborov, R. Sunnatovalar psixologiyaning umumiy psixologiya, pedagogik va yosh psixologiyasi, ijtimoiy psixologiya sohalari bo'yicha tadqiqot ishlarini amalga oshirmoqdalar.

Hozirgi kunda psixologiya tarmoqdari kuchayib unga e'tibor berilmoqda. Yetishib chiqqan barcha olimlarimiz O'zbekistondagi psixologiyani chet mamlakatlari psixologiyasi kabi yuqori cho'qqiga chiqishida katta hissa qo'shib, intilmoqdalar. Xususan umumta'lim maktablarida va maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilar va o'quvchilarning soniga qarab amaliyotchi psixologlar o'z faoliyatlarini olib bormoqdalar.[4] Ular o'quvchi-maktab(bog'cha)-oila o'rtasidagi bo'g'inlar bilan ishlashmoqda. Ushbu maktabgacha ta'lim sohasi tarbiyachilari tomonidan yo'lga qo'yilgan innovatsion tizimda tarbiyachi boladan yuqori emas, balki u bilan birga, ta'lim muhiti ichida bo'lishi kerak degan oltin qoida bilan har bir pedagog faoliyat yuritmog'i kerak. Misol tariqasida o'quvchi oiladagi muammolar tufayli maktabda bogchada o'zini tutishi mashg'ulotlarni mutassil qoldirishi va sinfdoshlaridan ortda qolishi yoki bo'lmasam uning ruxiyatidagi o'zgarishlarni sinf raxbariga aytaolmagan gaplarini psixologga yakka suxbat va treninglar orqali yo'lga solib to'g'ri fikrlar berib hayot go'zalligini o'quvchilarga singdirib borish bizning asl fazifamizdir. Xulosa qilib aytganda psixologiya fanini rivoji odamlar hayotiga ya'ni yashash tarziga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

8. G'oziev E. Umumiy psixologiya (1-kitob) (darslik) Toshkent-2002



9. N.I. Saydullayeva Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining kreativ kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari. Toshkent 2022y
10. Karimova V. Oila psixologiyasi (darslik) Toshkent-2007
11. Nishanova Z. Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi (o'quv qo'llanma) "O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi" nashriyoti Toshkent-2006
12. Alikulovich, Berikbayev Alisher. "BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARIDA KASBIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI." *Science and innovation* 3.Special Issue 16 (2024): 383-385.
13. Alikulovich, Berikbaev Alisher. "Development of Professional Competence of the Pedagogue through Visual Means." *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)* 1 (2023): 438-442.
14. Olimjon o'g'li, Hamidov Dilshod. "MUHANJENERLIK GRAFIKASINI O'QITISHNING ZAMONAVIY USULLARINI TAKMONLASH". *INTELLEKTUAL TA'LIM TEXNOLOGIK YECHIMLARI VA INNOVATSION DIGITAL VOSITALARI* 3.33 (2025): 68-70.
15. Rustambek o'g'li, Xudoyberdiyev Dostonbek. "IJODLIK JARAYONINI TAHLIL OLISH UCHUN NEYR TARMOQLARDAN FOYDALANISH". *INTELLEKTUAL TA'LIM TEXNOLOGIK YECHIMLARI VA INNOVATSION RAQAMLI ASOBOTLAR* 3.33 (2025): 63-67.